



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYAT KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
B U Y R U Q

«30» oktyabr 2023-yil

№ 190-ICH

Navoiy shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazishtartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 190-sonli buyrug'i ijrosi haqida

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazishtartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 190-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazishtartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 190-sonli buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalar, vazirlik huzuridagi agentlik hamda tasarrufiy tashkilot va muassasalarda xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazish tartibi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda Nizom) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Komplaens nazorat bo'limi (A.Xojamshukurov), tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish rahbarlari zimmasiga:

- ushbu buyruq bilan tasdiqlangan nizomni barcha rahbar va xodimlarga tanishtirilishini ta'minlash;

- o'tkaziladigan xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishlarini Nizom talablari asosida olib borish;

- xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi natijasiga ko'ra, xodimlarning javobgarligi masalasini adolatli va xolisona hal etish;

- xizmat tekshiruvi, xizmat o'rganishi tartibi va muddatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- xizmat tekshiruvi yakuni bo'yicha tuzilgan xulosada hamda xizmat o'rganishi ma'lumotnomasida belgilangan topshiriq va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Komplaens nazorat bo'limi (A.Xojamshukurov), tuman (shahar) Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish rahbarlari:

- O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq shaxsga oid hamda xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni oshkor etmaslik, tarqatilishini oldini olish maqsadida xizmat tekshiruvi xulosasi va o'rganish ma'lumotnomasi hamda ish jildidagi mavjud hujjatlardan nusxa olinishiga yoki boshqacha usulda berilishiga yo'l qo'yilmasligini;

- xizmat tekshiruvi xulosasi "xizmat doirasida foydalanish uchun" mo'ljallangan hujjat hisoblanib, xizmat tekshiruvi xulosasi va to'plangan hujjatlar vakolatiga kirmagan hamda taalluqli bo'lmagan shaxslarga tanishtirilmasligini ta'minlasinlar.

5. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2023-yil 29-maydagi 55-sonli buyrug'ining 3-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

6. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi 190-sonli buyrug'i.

Bosh boshqarma boshlig'i



L.Xayrullayev